



SURXONDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

SURXONDARYO VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQRISHI


2022- YIL YANVAR-MART (DASTLABKI MA'LUMOT)




Surxondaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi (2022- yil yanvar-mart oyida)

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2022- yilning yanvar-mart oyida Viloyat korxonalari tomonidan 1269,5 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2021- yilning yanvar-mart oyiga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 103,8 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 89,8 % ni tashkil etdi.




Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* % da



*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.


Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning – 23,9 % ga hamda ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning – 11,3 % ga o'sishi kuzatildi.

Tog'kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati



Tog'kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2022- yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 26,1 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 2,1 % ini tashkil etdi.


Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, foizda




Yanvar-mart

Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Oʻtgan yilning mos davriga nisbatan, % da



Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-mart	2022- yil yanvar-mart	Farqi +/-
Koʻmir, ming t.	47,6	38,2	-9,4
Neft, ming t.	-	21,3	21,3




Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-mart	2022- yil yanvar-mart	Farqi +/-
Qattiq tuz, ming t.	5,8	7,9	2,1
Chaqiq tosh, ming t.	15,9	19,5	3,6

Ishlab chiqaradigan sanoat

mlrd. so'm

Yanvar-mart

FHI,% da



2022- yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1140,4 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 89,8 % ini tashkil etdi.

2021- yil yanvar-mart


90,1 %

2022- yil yanvar-mart

89,8 %


O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,5 % ni (2021- yilning yanvar-mart oylarida – 0,2 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 0,4 % (0,2 %), o'rta-quyi texnologiyali – 18,6 % (23,0 %) va quyi texnologiyalisi – 70,3 % (66,8 %)ni tashkil etdi.







■ 2021- yil ■ 2022- yil



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob-uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 5,3 % (2021- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 103,0 %), metallurgiya sanoatining ulushi – 0,3 % (2021- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 13,6 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 50,6 % (2021- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 123,3 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 17,7 % (2021- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 103,9 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 0,5 % (2021- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 126,4 %)ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati
O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da






2022- yilning yanvar-mart oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 4,8 ming tonna paxta tolasi (2021- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 49,3 % ga kamaygan), 5,4 ming tonna boshqa guruhlariga kiritilmagan suyuq neft yoqilg'isi (mazut) (9,1 % ga kamaygan) 9,0 ming tonna kalava ip (30,9 % ga kamaygan), 16,2 ming tonna neft bitumi (15,2 % ga ko'paygan), 12,2 ming tonna paxta chigiti (84,1 % ga ko'paygan) hamda ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-mart	2022- yil yanvar-mart	Farqi +/-
Paxta tolasi, ming t.	9,5	4,8	-4,7
Kalava ip, ming t.	9,4	9,0	-0,4
Boshqa guruhlariga kiritilmagan suyuq neft yoqilg'isi (mazut), ming t.	5,9	5,4	-0,5
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t.	28,9	26,6	-2,3
Sariyog', t.	0,1	0,7	0,6
O'simlik yog'i (tozalangan), ming t.	1,1	0,9	-0,2

Metallurgiya sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-mart oylarida metallurgiya sanoati ulushi 2,2 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 2,4 m. ga o'sgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 0,3 % ni, fizik hajm indeksi esa, 13,6 % ni tashkil etib va ishlab chiqarish hajmi 3,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-mart oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 7,4 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 147,2 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-mart oylari yakuniga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,7 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 42,7 % ga kamaygan va ishlab chiqarish hajmi 34,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.


Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-mart oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 18,0 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 91,3 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-mart oylari yakuniga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 17,4 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 5,9 % ga ko'paygan va ishlab chiqarish hajmi 221,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-mart oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,5 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 101,8 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-mart oylari yakuniga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,3 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 59,9 % ni va ishlab chiqarish hajmi 3,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.



To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati




Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-mart oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 42,3 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 255,9 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-mart oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 47,5 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 130,6 % ga o'sgan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 603,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.


Kiyim ishlab chiqarish sanoati

2021- yilning yanvar-mart oylari yakuniga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 3,5 % ni, fizik hajm indeksi esa 99,3 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,0 %, fizik hajm indeksi 84,0 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 38,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

2021- yilning yanvar-mart oylari yakuniga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,2 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 103,0 % ni tashkil etgan. Shuningdek, 2022- yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,3 % ni, fizik hajm indeksi 134,7 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 3,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish



2021- yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko'ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 8,6 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 91,5 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 10,4 % ni, fizik hajm indeksi 118,7 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 132,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

2021- yilning yanvar-mart oylari yakuniga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,2 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 92,9 % ni tashkil etgan.


Shuningdek, 2022- yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,3 % ni, fizik hajm indeksi 109,0 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 3,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 78,5 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 6,2 % ini) tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-mart oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 124,0 % ga oshganligi kuzatildi.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-mart	2022- yil yanvar-mart	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	0,9	30,1	29,2
Issiqlik energiyasi, ming gkal	17,4	15,7	-1,7

Yanvar-mart
Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 24,5 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,9 % ini) tashkil etdi.


Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-mart	2022- yil yanvar-mart	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd. so'm	1,5	0,7	-0,8
Boshqa axlatxonalarda xavfsiz chiqindilarni yo'qotish bo'yicha xizmatlar, mlrd. so'm	5,2	5,9	0,7

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar 14,8 mlrd. so'm, oqova suvlarini yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 0,7 mlrd. so'm shuningdek, 5,9 mlrd. so'm boshqa axlatxonalarda xavfsiz chiqindilarni yo'qotish bo'yicha xizmatlar ishlab chiqarildi.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 381,1 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2021- yilning mos davriga nisbatan 94,1 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 30,0 % ni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari

2021- yil
yanvar-mart

54,7 %

2022- yil
yanvar-mart

51,3 %

Nooziq-ovqat mahsulotlar

2021- yil
yanvar-mart

45,3 %

2022- yil
yanvar-mart




48,7 %

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 0,6 % (2021- yil yanvar-mart oylarida 1,2 %)ni tashkil etdi. Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining Viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Termiz shahri 16,2 % ni, Sho'rch tumaniga to'g'ri kelib 15,9 % ni, Jarqo'rg'on tumani 11,6 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida Viloyat o'sish sur'ati (94,1 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Bandixon (187,3 %), Sherobod (123,5 %), Jarqo'rg'on (112,8 %), Oltinsoy (110,6 %), Termiz (114,3 %) hamda Boysun (105,9 %) tumanlarida qayd etildi.

Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining Viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Termiz shahrida 16,2 % to'g'ri kelib shuningdek, Sho'rchi tumaniga 15,9 %, Jarqo'rg'on tumanida 11,6 % ni tashkil etdi.



o'sish sur'ati
mlrd. so'm



Surxondaryo Viloyatsi hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

Hududlar kesimida sanoat ishlab chiqarilishining Viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jarqo'rg'on tumaniga to'g'ri kelib 17,7 % ni, shuningdek, Sherobod tumani 13,3 % ni, Termiz shahri esa 14,5 % ni tashkil etdi.

Surxondaryo Viloyati

2020- yil

1226,6 mlrd. so'm

2020- yil yanvar-mart

2021- yil

1166,6 mlrd. so'm

2021- yil yanvar-mart

2022- yil

1269,5 mlrd. so'm

2022- yil yanvar-mart



2020- yil

126,3 %

2020- yil yanvar-mart

2021- yil


106,9 %

2021- yil yanvar-mart

2022- yil

103,8 %

2022- yil yanvar-mart




FHI, % da

mlrd. so'm

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Jarqo'rg'on (987,5 ming so'm), Termiz shahri (658,3 so'm), Sherobod (832,8 so'm) hamda Termiz (966,7 ming so'm) tumanlarida o'rtacha Viloyat darajasi ko'rsatkichidan (461,6 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.



Surxondaryo Viloyati

2020- yil

473,2 ming so'm

2020- yil yanvar-mart

2021- yil

434,2 ming so'm

2021- yil yanvar-mart

2022- yil

461,6 ming so'm

2022- yil yanvar-mart



01

2020- yil

124,2 %

2020- yil yanvar-mart

02

2021- yil

104,8 %

2021- yil yanvar-mart

03

2022- yil




101,4 %

2022- yil yanvar-mart

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish


Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 138,6 ming so'm bo'lgani holda, Termiz shahrida – 325,1 ming so'mni, Termiz tumanida – 418,6 ming so'mni Sho'rchi tumanida – 276,7 ming so'mni va Jarqo'rg'on tumanida – 194,3 ming so'mni tashkil etdi.

Surxondaryo Viloyati



Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 475,2 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 37,4 % ni tashkil etdi.



Surxondaryo viloyati

2020- yil

497,1 mlrd. soʻm

2020- yil yanvar-mart

2021- yil

409,0 mlrd. soʻm

2021- yil yanvar-mart

2022- yil

475,2 mlrd. soʻm

2022- yil yanvar-mart



2020- yil

40,5 %

2020- yil yanvar-mart

2021- yil

36,1 %

2021- yil yanvar-mart


2022- yil

37,4 %

2022- yil yanvar-mart

Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda Viloyatda 4 682 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 832 tasi (ro'yxatdan o'tgan korxonalar umumiy sonining 17,8 % i) Termiz shahriga, 550 tasi (11,7 %) Denov tumaniga, 353 tasi (7,5 %) Sho'rchi tumaniga, 310 tasi (6,6 %) Termiz tumaniga va 294 tasi (6,3 %) Sariosiyo tumaniga to'g'ri kelmoqda.



Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi

Viloyat sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori o'sish sur'atlariga erishishda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining amalga oshirilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Mazkur dastur doirasida kiritilgan 20 ta loyiha bo'yicha 13.6 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi. Mahalliyashtirish dasturi doirasida 2022-yilning yanvar-mart oylarida 27 ta yangi ish o'rinlari yaratildi.

Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining asosiy ko'rsatkichlari

	2021- yil yanvar-mart	2022- yil yanvar-mart
<i>Loyihalar soni, birlikda</i>	39	20
<i>Korxonalar soni, birlikda</i>	15	12
<i>Ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm</i>	16.4	13.6
<i>Eksport qilingan mahalliyashtirilgan mahsulot hajmi, mln. AQSh dollari</i>	-	-
<i>Yaratilgan yangi ish o'rinlari, birlikda</i>	20	27